

## **TARJIMA ME'YORI: GIDEON TURI YONDASHUVI**

*Qosimova Nafisa Farhodovna*

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

*Buxoro davlat universiteti*

Normalar umumiy qadriyatlarni adekvat va noadekvat, to'g'ri va noto'g'ri tushunchalarni muayyan vaziyatda xatti-harakatlarning muayyan modellariga aylantirish natijasida shakllanadi. Mavjud me'yorlar asosida xulq-atvor modellari, ko'nikmalari va usullari to'plami ishlab chiqiladi, natijada ular faoliyat strategiyalarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarjimashunos olim Gideon Turi me'yorlarning implisit tabiatini o'rganarkan, ular insonlar faoliyatini va xatti-harakatini boshqarishini, ayni vaqtda me'yor aniq formulaga muhtoj emasligini ta'kidlab o'tadi. Biroq, me'yorlarni verballashtirish ehtimoli saqlanib qoladi.

G.Turi tarjimini tartibga soluvchi me'yorlar bilan yaqin munosabatda bo'lishini ta'minlovchi uchta turdosh sohani ajratishni taklif qiladi:

- 1) tarjima - bir tilli muloqot;
- 2) tarjima - tarjima faoliyati natijalarini baholovchi mezon;
- 3) tarjima – tarjima mahoratini o'rganish.

Birinchi holatda, me'yorlarning qisman o'xshashligi kuzatiladi, chunki tarjima avvalo nutqni idrok etish va yaratishni nazarda tutadi. Yuqoridagi jarayonlarni tartibga soluvchi mazkur me'yorlar bir tilli muloqotda qo'llaniladigan me'yorlarga bir qadar o'xshashdir. Biroq tarjima jarayoni faqat shu ikki bosqich bilan chegaralanib qolmaganligi sababli, me'yorlarning mutanosibliigi tol'aqonli emas, balki qismanligicha qolmoqda. Tarjimon TT madaniyati bilan uzviy bog'langan hamda mazkur madaniyatga hurmat bilan yondashgan holda TM ni iloji boricha maqbul qilish maqsadida TT me'yorlariga amal qilishi tarjima jarayonini va bir tilli muloqotni tartibga soluvchi me'yorlarni o'rnatishda ahamiyat kasb etadi. Agar tarjimon maqbullik/nomaqbullik me'yorlariga e'tibor qaratmagan holda

tarjimaning maksimal adekvatligini ta'minlashga harakat qilganda qarama-qarshi jarayon kuzatilishi mumkin.

Ikkinchi holatda esa, tarjima jarayonini tartibga soluvchi va tarjima faoliyati natijalarini baholash jarayonini ta'minlovchi me'yorlar prospektivlik/retrospektivlik nuqtai nazaridan tubdan farq qiladi.

Tarjima prospektiv jarayon, tarjima faoliyatini baholash jarayoni esa retrospektivdir. Ikkala jarayon ham matnni qayta ishlash bilan chambarchas bog'liq bo'lishiga qaramasdan, ularning yakuniy natijalari tubdan farq qiladi. TM – eng avvalo, tarjima me'yorlarini bevosita qo'llash natijasi hisoblanadi.

Olim “Tarjima bu aslida tarjima ko'nikmalarini o'rgatish demakdir” deya ta'kidlar ekan, u tarjimon tomonidan o'quv jarayonida o'zlashtiriladigan tarjima me'yorlari va tarjimonning haqiqiy tarjima vaziyatlaridagi faoliyatini belgilaydigan me'yorlar o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi. Bu tarjimondan ma'lum ijtimoiy guruhda qabul qilingan ijtimoiy-madaniy me'yorlarni o'zlashtirishni hamda ularga moslashishni talab etadi.

G.Turi tarjimada bevosita o'z ta'sirini ko'rsatuvchi me'yorlarning ikki katta guruhini ajratadi. Ular dastlabki va operatsion me'yorlardir [1]. Operatsion me'yorlarga nisbatan dastlabki me'yorlar ustunlikka ega. Shunga qaramay, me'yorlarning har ikkala guruhi ham bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqotchining fikricha, me'yorlarning birinchi guruhi “tarjima siyosati” va “tarjima yo'nalishi” kabi ikki fundamental tushunchaga asoslanadi. O'z navbatida tarjima siyosati tarjimonning qaysi turdagi MT ga oid matnlarni TT madaniyatiga eng samarali usulda “import qilish” imkoniyatiga ega bo'lishi bo'yicha shaxsiy tanlovini belgilovchi omillarga asoslanadi. Tarjima yo'nalishi asliyat tilidan boshqa tillarga o'girishda bag'rikenglik chegarasi bilan bog'liq. Shunday qilib, dastlabki me'yorlar tarjimaning o'ziga xos yo'nalishini ta'minlaydi va tarjimonga ma'lum bir jumla yoki gapni “tarjima qilish yoki tarjima qilmaslik” bo'yicha yakuniy qarorini qabul qilishga yordam beradi.

Operatsion me'yorlar esa tarjima akti jarayonida bevosita tarjima qarorlariga ta'sir qiladi. Ular matnning “matritsasi” shakllanishi bilan bog'liq, ya'ni matndagi

lingvistik materialning tarqalish jarayonlarini, matnning tuzilishi va verbalizatsiya jarayonlarini nazorat qilishni nazarda tutadi.

Matritsa me'yorlari TT dagi ma'lum elementlar yoki butun fragmentlarning AT da ekvivalentlari mavjudligini, ularning matndagi o'rnini, shuningdek, matn segmentatsiyasini aniqlaydi. Matnda mavjud ayrim elementlarni tushirib qoldirish, qo'shish, elementlarning matndagi joylashuvini o'zgartirish va mavjud segmentatsiya tizimini modifikatsiya qilish darajasi ham ushbu turdagi meyorlar bilan belgilanadi.

Matnga xos lingvistik me'yorlar TM ni shakllantirish yoki asl matn yoki lingvistik materialni almashtirish uchun zarur bo'lgan materialni tanlash jarayonini tartibga solish imkonini beradi. Operatsion meyorlar tarjima jarayoni uchun modelni yaratadi. Bu model yoki AM asosida yotgan me'yorlar asosida (G.Turi buni "adekvat tarjima" deb ataydi), ularni biroz o'zgartirish bilan yoki faqat TM meyorlari asosida yoki har ikkala guruh me'yorlar o'rtasida murosani topish orqali amalga oshiriladi. Keng ma'noda modellar algoritmi vazifasini bajarib, bir tomondan, mutarjimga ma'lum imkoniyatlar va tanlash huquqini bersa, ikkinchi tomondan, tanlovda cheklovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Tarjima hodisasi doirasida amalga oshirilayotgan tarjima jarayonini tartibga solish imkonini beruvchi me'yorlarni har doim ham kuzatib bo'lmaydi, shunga ko'ra G.Turi tarjima meyorlarini qayta yaratishning ikki yo'lini taklif qiladi:

- 1) tekstual
- 2) ekstratekstual

Birinchi usul matnlarning o'zini tahlil qilish orqali me'yorlarni qayta yaratishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi usul esa tarjima faoliyati davomida yoki uning natijalarini baholashda mutarjimlar tomonidan qilingan mulohazalarni tahlil qilishga asoslanadi. Ikkala usul o'rtasidagi tub farq shundaki, matn to'g'ridan-to'g'ri me'yoriy xatti-harakatlarning mahsuli bo'lib, unda meyorlar bevosita aks etadi. Boshqa tomondan, me'yorlar to'g'risidagi har qanday mulohazalar faqat ularning mavjudligi va faolligini ko'rsatadigan "qo'shimcha mahsulot" ekanligini tasdiqlaydi [2].

Xulosa qilib aytganda, G.Turi ta'riflagan tarjima me'yorlarini o'zlashtirish jarayoni biz uchun alohida qiziqish uyg'otadi. Bu ko'nikma tarjimonida o'zini o'zi boshqarish mexanizmini shakllantirish davomida uning tarjima faoliyati modelining ajralmas qismiga aylanadi.

**Adabiyotlar:**

1. Toury G. 1995. *Descriptive Translation Studies and Beyond*. Amsterdam and Philadelphia: Benjamins.
2. Toury G. 1998. "A Handful of Paragraphs on Translation and Norms" In: Christina Schaffner, ed. *Translation and Norms*. Clevedon.
3. Ullmann-Margalit E. 1977. *The Emergence of Norms*. Oxford: Oxford University Press.